

METHODS OF INVENTING YOUNG PEOPLE TO ENTREPRENEURSHIP THROUGH INTERACTIVE METHODS

M. G. Ibragimova
QDPI Teacher

ANNOTATION

This article provides information on how to engage young people in entrepreneurship through interactive methods, interactive methods, entrepreneurship, teamwork.

Keywords: Business, entrepreneur, interactive methods, personality, knowledge, training, criteria, entrepreneurial activity.

ANOTATSIYA

Ushbu maqolada Interfaol metodlar orqali yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga qiziqtirish usullari, interfaol metodlar, tadbirkorlik, guruh bo'lib ishslash haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Biznes, tadbirkor, interfaol metodlar, shaxs, bilim, o'qitish, mezon, tadbirkorlik faoliyati.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о том, как вовлечь молодежь в предпринимательство через интерактивные методы, интерактивные методы, предпринимательство, командную работу.

Ключевые слова: Бизнес, предприниматель, интерактивные методы, личность, знания, обучение, критерии, предпринимательская деятельность.

INTERFAOL METOD

ta'lif jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni tekshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'lifning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishslash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lif-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega. "Biznes" so'zi ingilizcha so'z bo'lib, u tadbirkorlik faoliyati yoki boshqacha so'z bilan aytganda kishilarni foyda olishga qaratilgan faoliyatidir. Biznes bozor iqtisodiyotining barcha ishtirokchilari o'rasidagi munosabatlarni qamrab oladi va faqat ishbilarmonlarning emas, balki iste'molchilarning, yollangan ishchilarning, davlat tizimi xizmatchilarining ham xatti - harakatlarini o'z ichiga oladi. Bu holatda, biznes so'zining sinonimlari bo'lib, ma'lum ma'noda tijorat, savdo-sotiq kabi tushunchalar hisoblanadi. Umumiyo ko'rinishda biznes - bu kishining bozor munosabatlari tizimidagi ishchanlik va faolligidir. Kichik biznes ta'rifini uning

mazmuni bilan bog'lash lozim. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kichik biznes xarakterida tadbirkorlik bilan uyg'unlik mavjud. 2000 yil 25 mayda qabul qilingan "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga asosan, tadbirkorlik – tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyatdir. Kichik biznes subyekti hech qachon o'zgarmas faoliyat ko'lamida qolishni ko'zlamaydi, aksincha, rivojlanib, faoliyatini kengaytirib borishga intiladi. Milliy tadbirkorliligidizning qator xususiyatlari buyuk olim Farobiyning "Fozil kishilar shahri" asarida ham o'z ifodasini topgan. Bu asarda u kishilarni asosan mulkdor, ya'ni tadbirkor bo'lishga va uning natijasida inson qashshoq holda yashamasligini uqtirib, ishlab chiqarish ehtiyojiga ham, shaxsiy iste'moliga ham xarajat qilishda tartib va me'yorga amal qilishga chaqiradi. Farobiy mulkni befoyda jamg'arishdan farqli ravishda mulk egasi bo'lish yomon odat emasligini, chunki mulk halollik bilan to'planadigan bo'lsa, qashshoqlikda yashashga qaraganda badavlatlik afzal ekanligini tushuntiradi. U "Kimda-kim o'z ixtiyorida bo'lgan mulkni foyda chiqrish uchun muomalaga qo'shmay, o'zi uchun jamg'arsa, juda katta zarar keltiradi², deb ta'kidlaydi. Tadbirkorlikning nazariy asoslarini sharq mentaliteti xususiyatlaridan o'rganishda "Temur tuzuklari" alohida ahamiyat kasb etadi. Amir Temuring barcha olamshumul g'alabalariga sabab ham tadbirkorlik bilan ish yuritishi, tadbirkorlikni o'z tafakkuri va harakati shiori qilib olganligidadir. Amir Temur o'z davrida tadbirkorlikning nafaqat xususiyatlarini, balki amal qilish asoslarini ham ko'ra bilgan va ularni³:

- ma'lum bir sabablarga ko'ra sarmoyasidan ajrab qolgan tadbirkorlarga davlat xazinasidan yordam berish zarur bu bilan ular avvalgi salohiyatlarini tiklab oladilar;
- tadbirkorlik va hunarmandchilik bilan shug'ullanayotgan aql-idrokli kishilarga nisbatan g'amxo'r bo'lish, ularning xizmatini qadrlash va shu orqali ularni yaratuvchanlik va savobli ishlarga rag'batlantirish;
- poklik, iyemon-e'tiqodlilik, adolatlilik kabi qoidalarga bo'ysungan holda daromadlarni adolatli taqsimlash;
- tadbirkorlik faoliyati bilan mashg'ul bo'lgan kishilarga yetarli sarmoya berishda, deb bilgan. Tadbirkorlikni ta'riflashda otashin vatanparvar, ma'rifatchi Abdulla Avloniy shunday fikrlagan: "Inson hatti-harakatlarining qaysi biri foydali, qaysi biri zararli ekanligi o'ziga ravshan bo'limguncha kuzatadi va foydalilagini tanlab olib, o'zlashtiradi, zararligini rad etib, ulardan o'zini olib qochadi"⁴. Bu g'oya bugungi kunda iqtisodiy tanlov qoidasiga aynan tadbirkorlik bilan amal qilishga, resurslar cheklangan sharoitda ularni nimani ishlab chiqarish iqqatisodiy jihatdan ma'qul bo'lsa, shunga sarflash yo'li bilan faoliyatni tanlab olishga ma'lum bir tamal toshidir.

Aslida ham tadbirkorlik avvalo, qo'lidagi ozmi-ko'pmi boyligidan biznes bilan shug'ullanish uchun foydalanadigan faol va tashabbuskor kishining intellektual faoliyatidir. Shuning uchun ham "tadbirkorlik" faqat pul topishni emas, balki yaratuvchilik faoliyati orqali daromad olishni bildiradi.

Eyingi yillarda mamlakatimizda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi: ulgurji va chakana savdo tizimi isloq qilindi; kichik tadbirkorlik korxonalariga infratuzilma bo'linmalari tomonidan xizmat ko'rsatishning samarali tizimi yaratilmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qonuniy huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilish hamda tadbirkorlik erkinligini kafolatlash tizimi shakllanmoqda;

tadbirkorlarni davlat ro'yxatiga olish va xisobga qo'yishning engillashtirilgan va xabardor qilish tartibi joriy etildi;

birja savdolari orqali tadbirkorlarning moddiy-texnik resurslarni erkin sotib olishiga qulay shart-sharoit yaratadi;

maxsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarining mahasulotlarini majburiy standartlashtirish va sertifikatlash soddalashtirildi; soliq yukini pasaytirish va soddalashtirish choralar ko'rildi; statistika va soliq qisobotining qisqartirilgan shakli kiritildi; kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati erkinlashtirildi;

ish boshlovchi tadbirkorlar uchun dastlabki sarmoyani shakllantirish va boshqa shakllardagi yangi moliyaviy qollab-quvvatlash tizimi joriy etildi va boshqalar. Eng dolzarb masalalardan biri bo'lgan aholimizni, avvalambor, yoshlarmizni ish bilan ta'minlash va ularning munosib daromad topishi, farovonligi oshib borishiga erishish va tadbirkorlik faoliyatini taraqqiy ettirish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi bu holat respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal sur'atlar bilan rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatida ham ko'rindi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik odamlarimiz uchun yangi ish yrinlarini ochish, barqaror daromad manbalarini yaratishning eng muhim omiliga aylanayotganligini mamlakatimizda ish bilan band aholining 74 foizdan ortig'i aynan shu sohada mehhnat qilayotganligi, 2011 yilda sohani rivojlantirish hisobidan 8913,5 mingta yangi ish o'rni ochilganligida ham ko'rishimiz mumkin.O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy sektor asosan mustaqillik yillarida yuqori suratlarda rivojlanib borib, asosiy o'rinni egallab bormoqda.Bu natijalarga erishishda tadbirkorlarning erkin faoliyat yuritishlarini kafolatlash, huquqiy bazani mustahkamlash, iqtisodiyotni mazkur sektori uchun barqaror qulaylik yaratilganligi, ularni davlat ro'yxatiga olishning soddalashtirilgan mexanizmini joriy qilish, mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish tartibini unifikasiya qilish, kichik biznes sub'ektlarining kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish boyicha ko'rilgan bir qancha chora-tadbirlar muhim omil bo'ldi.

Kichik korxonalarining mavqeい mustahkamlab borishi quyidagi omillar bilan bog'liq.Ishbilarmonlarni qo'zg'atuvchi kuch daromad olish ishtiyoqi bo'lib, bu daromad ularga ishbilarmonlik firmalarini taraqqiy toptirish va o'z ishini kengaytirish, hamda unda ishlovchilarni moddiy rag'batlantirish uchun kerak bo'ladi. O'z ishini tashkil qilishda ustuvor sabab bo'lib, inson o'zining jamiyatdagi iqtisodiy, moddiy va ijtimoiy holati (mavqeい)ni yaxshilash, o'zining va oilasining hayoti farovonligini oshirish uchun intilishi hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyatiga turki bo'ladigan boshqa sabablar qatoriga shaxsning o'zini ko'rsatishga, xalqning moliyaviy resurslaridan bir qismini, qo'shimcha mehnat va boshqa resurslarni xo'jalik jarayoniga jalb qilishga imkon borligi, fuqarolarning qonuniy ravishda o'z daromadlarini oshirishga, qo'shimcha daromad keltiruvchi faoliyat turi bilan astoydil shug'ullanishga imkonli borligi kabi omillarni qo'shish.

Xulosa qilib aytganda interfaol metodlar yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga qiziqtirishda katta ahamiyatga ega.Masalan biror bir biznessmes yoshlarga interfaol metodlar asosida bizness trenerlar hamda biznessga kirish haqida ma'lumotni yangicha usullarda yoshlarga o'rgatsa

,yoshlarda yaxshi tushunchalar paydo bo'ladi hamda tadbirkorlikka qiziqishi yanada ortadi.Unda tashqari tadbirkorlik tushunchalari yoshlarga jamoa-jamoa bo'lib ishslash usullari interfaol metodlar yordamida o'rgatilsa,ishning samaradorligi ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. www.ziyonet.uz
2. SH.K. SHAYAKUBOV, R.X. AYUPOV metodlar.